

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
KUTUBXONASI**

MUHABBAT VA OZODLIK KUYCHISI

Toshkent – 2006

Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон
Миллий кутубхонаси нашриёти – 2006
www.natlib.uz, e-mail: navoi@tshtt.uz

0

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
KUTUBXONASI**

MUHABBAT VA OZODLIK KUYCHISI

Nodirabegim tavalludining 215 yilligi munosabati bilan

Metodik-bibliografik qo‘llanma

Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi
nashriyoti
Toshkent – 2006

78.342
M 96

Ilmiy - metodik bo'lim tomonidan tayyorlandi

Tuzuvchi *N.Anvarova*
Muharrir *H. Mamatraimova*
Mas'ul muharrir *O.Qilichboyev*

Muhabbat va ozodlik kuychisi: Nodirabegim tavalludining 215 yilligi munosabati bilan: Metod.-bibliogr.qo'll. /Alisher Navoiy nom. O'zbekiston Milliy k-nasi; Tuzuvchi N. Anvarova; Muharrir H.Mamatraimova.-T.:Alisher Navoiy nom. O'zbekiston Milliy k-nasi nashriyoti, 2006.- 32 b.

KBK 78.342+83.3 (5 U)

XVIII-XIX asr she'riyatining eng yorqin va eng ulug' namoyandalaridan biri, buyuk shoira Nodirabegim tavalludining 215 yilligiga bag'ishlangan ushbu metodik-bibliografik qo'llanma shoira ijodini, merosini chuqur o'rganish, targ'ib qilishda kutubxona xodimlariga yordam berish maqsadida tuzilgan. Unda kutubxonachilar o'tkazishi mumkin bo'lgan tadbirlar turkumi haqida ma'lumotlar ham berilgan.

© **Alisher Navoiy nomidagi**
O'zbekiston Milliy kutubxonasi
nashriyoti, 2006 y.

Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон
Миллий кутубхонаси нашриёти – 2006
www.natlib.uz, e-mail: navoi@tshtt.uz

Muqaddima	3
Nodirabegimning tarjimai holi.....	5
Nodirabegim lirikasi.....	9
Fors-tojik tillardagi she'rlari.....	13
Nodiraning fojiasi.....	15
Bilimdonlar bellashuvini tashkil qilishga tavsiyalar.....	17
Og'zaki jurnal.....	21
Og'zaki jurnalning namunaviy rejasi.....	22
Munozara uchun savollar.....	23
Davra suhbatini uchun savollar.....	24
Kitob ko'rgazmasini tayyorlashning taxminiy rejasi.....	24
Kutubxonalarda o'tkazish mumkin bo'lgan tadbirlar turkumi.....	26
Adabiyotlar.....	29

MUQADDIMA

*Shukurkim, homiyi din Nodira sulton bo‘ldi,
Adlidin bog‘i jahon ravzai rizvon bo‘ldi.
Adlu ehsoni jahon mulkini obod etti,
Dahr eli himmatidin xurramu shodon bo‘ldi*
Muhammad Sharif

Ko‘hna Turonning ilmiy, madaniy markazlaridan biri-Xo‘qandi latif qadimdan iste‘dodli shoirlar, olimlar, san’atkor, qo‘li gul hunarmandlar shahri sifatida dong taratib kelgan.

XVIII asr oxiri-XIX asrning birinchi yarmida markazlashgan Qo‘qon xonligi o‘z taraqqiyotining yuqori bosqichiga ko‘tarildi. Mazkur mamlakatda iqtisodiy hayot ancha jonlandi, shu tufayli xalq ma‘naviy-madaniy turmushida katta ijobiy o‘zgarishlar yuz berdi. Yozma adabiyot, ilm-fan, turli san’at va hunarlar rivoj topdi, Qo‘qon tom ma‘noda shoirlar, fozillar shahriga aylandi. Bu yerdan o‘zbek va tojik adabiyotiga munosib hissa qo‘shgan shuaro, ulamolar yetishdi.

Mavlono Fazliy Namangoniyning mashhur “Majmuai shoiroi” (“Shoirlar to‘plami”) tazkirasidan ma‘lum bo‘lishicha shu davrda Qo‘qon adabiy muhitida 85 shoir yashab, ijod etgan.

Mazkur tazkiraga kiritilmagan Nodira ham ana shu muhitda kamol topdi. Xalqimizning go‘zal, oqila, fozila farzandi tarjimai holiga doir mufassal ma‘lumotga ega emasmiz. Shoiraoning o‘zbekcha devoni debochasida, zamondoshlari asarlarida uning asl ismi, shaxsiyati, din, madaniyat homiysi sifatida qilgan ishlari haqida muhim ma‘lumotlar bor.

Shoiraoning asl ismi Komila bo‘lganligini Nodira haqida ilk bor maqola yozgan serqirra ijodkor Lutfulla Olimiy, O‘z FA muxbiri a‘zolari- Olim Sharafuddinov, Aziz Qayumov, filologiya fanlari nomzodi, shoir O‘tkir Rashid o‘z maqolalarida alohida qayd etganlar. Saroy doirasida uni “mohlar oyim” deb ataganlar. Zamondoshlari “Uzlat Nodira”, Abdurahmon Mirzo kabilar asarlarida Nodirani “Oyim”, “Xonim” deganlar.

Komila din, madaniyat homiysi, olijanob ayol sifatida ko'p va xo'b xayrli ishlarni amalga oshiradi: o'z atrofiga ko'p-lab shoir, san'atkor, fozil kishilarni yig'di, ularni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatladi, ijodiy ishlarni rag'batlantirdi.

Oyim qishlog'iga qadam ranjida qilishingiz bilan katta yo'l yoqasidagi dilbar ayol haykaliga ko'zingiz tushadi.

U go'yo poyi qadamingiz qutlug', qani biz tomonga marhabo, deyayotgandek, ark ichidan qarshingizga peshvoz chiqib kelayotgandek.

O'zbek mumtoz adabiyotining nuqtadon shoirasi bu yerda ganch holatda qo'nim topganligi bejiz emas. Nainki, Mohlaroyimning Oyim qishloq tuprog'iga poyi qadamlari tekkan uning otashnafas g'azallariga bog'-rog'lar, bulbullar, Qoradaryo suvi, turna ko'z bo'yoqlari guvoh bo'lgan.

Nodirabegim irfoniy hikmat va insoniy poklik, ilohiy ma'rifat, ishq-muhabbat, ozodlik kabi g'oyalarning she'r va g'azallarida o'z ifodasini topishi, shoiraning mahorat egasi ekanligini ko'rish mumkin.

Shoira Nodirabegimdan qator devonlar va she'riy to'plamlar meros bo'libgina qolmasdan, balki shoiraning o'zbek qizlariga xos ibo-hayosi, yoriga bo'lgan sadoqati ham bo'lg'usi avlod uchun o'rnak bo'lib qoldi.

U yaratgan asarlar va u haqidagi asarlar, ilmiy maqolalar, to'plamlar kutubxonalarimiz katalog va kartotekalarida o'z aksini topgan.

2006 yilda ulug' shoira, shoiralar ustoz, ozodlik kuychisi vatanparvar inson Nodirabegimning tavallud topganiga 215 yil to'ladi. Bu ulug' sana o'zbekistonliklarning qutlug' bayrami sifatida nishonlanadi.

Respublika kutubxonalarining vazifasi kitobxonlar diqqatini Nodirabegim ijodiga jalb qilish va uning ijodini targ'ib qilishdan iborat.

Bu ishda kutubxonalar targ'ibotning kitob taqdimoti, ilmiy-amaliy konferensiya, kitobxonlar konferensiyasi, savol-javob kechalari, davra suhbatlari, bilimdonlar bellashuvi, mavzuli va munozara kechalari, uchrashuv, xotira kechalari, og'zaki jurnal, kitob ko'rgazmalari, uning asarlari va u haqidagi asarlarining obzorlari singari turli-tuman shakl va usullaridan foydalanishlari mumkin.

Bunday tadbirlar turkumini tashkil etish uchun kutubxonalarda mavzuning asosiy mazmunini yetkazib bera oladigan faylasuflar, adabiyotshunoslar, tarixchilar, filologlar, yozuvchi va shoirlar, jurnalistlar hamda adabiyot o'qituvchilarini ham jalb qilish lozim.

Kutubxonalarga: "Ma'naviyat va ma'rifat" markazlarining joylardagi bo'limlari, "Oltin meros", "Nuroni" jamg'armalari, "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati, yozuvchilar uyushmasi vakillari, tarixchilar, yozuvchi va shoirlar, xotin-qizlar qo'mitalari, jurnalistlar bilan hamkorlikda ommaviy tadbirlarni tashkil etishlari va o'tkazishlarini maslahat beramiz.

Ushbu metodik-bibliografik qo'llanmada kutubxonalarda Nodirabegimning 215 yilligiga bag'ishlangan tadbirlarni o'tkazishda kutubxonachilarga yordam berish maqsadida kitobxonlar bilan ishlashning ayrim shakllari ko'rib chiqilgan.

NODIRABEGIMNING TARJIMAI HOLI

Sharq adabiyotida Robia, Ismati va Oysha (XI asr), Munisa Ho'jandiy, Sittixonim Mutriba (XII asr), Jahonxotun (XIV asr), Munajjima va Mehri (XV asr), Gulbadanbegim, Gulchehrabegim (XVI asr), Nurjahonbegim va Zebunniso (XVI-XVII asrlar), Mahzuna, Notavon va Uvaysiy (XVIII-XIX asrlar), Muazzamxon va Nazimaxonim (XIX-XX asrlar), shoira Anbar va boshqa o'nlab shoirlar singari shuhrat topgan Mohlaroyim Nodira XIX asr o'zbek adabiyotida quvonch va g'azabni, visol

xursandliklari va hijron alamlarini, tinch hamda osoyishta yashash umidlari va bu umidlar qarshisidagi fojiali hollarni o'z ijodida aks ettirganligi bilan mashhurdir.

Mavlono Nodir tomonidan xilma-xil "sharofat"lari, "karam bobida yuz erdin ziyoda" fazilatlarini, aql va idroki ta'riflangan Nodira aristokrat oilaga mansubligi bilan, o'z zamondoshlari bo'lgan kosib qizi Uvaysiy va tog'lik bechora Mahzunadan farq qilardi.

Mohlaroyim-Nodira XVIII asr oxiri va XIX asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan, ajoyib she'rlari bilan o'zbek mumtoz adabiyoti tarixida o'ziga xos o'rin tutgan ma'rifatparvar shoira, davlat arbobi, madaniyat va adabiyot homiysidir.

Mohlaroyimdan bizgacha Komila, Nodira, Maknuna taxalluslari bilan o'zbek va fors-tojik tillarida yaratilgan lirik asarlardan iborat kattagina adabiy meros yetib keldi.

Mohlaroyim 1792 yili Andijon hokimi Rahmonqulibiy oilasida tavallud topdi. Shoiraning ota-onasi Amir Temur xonadoniga mansub edi. Uning onasi Oyshabegim shoir tabiatli donishmand ayol bo'lgan. Mohlaroyim shu muhitda tarbiya oldi, xalqimiz tarixi, madaniyati, ilm va adabiyotidan yaxshigina xabardor bo'lib o'sdi. Yoshligidan o'tkir zehni, nozik tabiati va shoirona salohiyati bilan ajralib turgan Mohlaroyim she'riyatga erta havas qo'ydi. Ustoz Navoiy, Jomiy va Bedil kabi allomalarning asarlariga bo'lgan e'tiqod bilan ruhan barkamollashib bordi. Ma'lumki, bu yillarda Qo'qon xonligini Olimxon idora qilardi. Uning ukasi Umarxon esa Farg'ona vodiysining nufuzli shaharlaridan bo'lgan Marg'ilonda hokim edi. Umarxon va Mohlaroyim 1807 yilda turmush quradilar. Shu munosabat bilan Mohlaroyim Marg'ilonga keladi. Qo'qon xonligida davom qilib kelayotgan ziddiyatlar oqibatida 1810 yil Olimxon qatl etilib, unig o'rniga Umarxon taxtga ko'tariladi. Shundan boshlab Mohlaroyim taqdiri Qo'qon bilan bog'lanib qoladi. Uning shoira sifatida keng ko'lamda ijod maydoniga kirib kelishi ham shu

yillarga to‘g‘ri keladi. Amiriy taxallusi bilan lirik she‘rlar yozgan Umarxon shoiraning ustozlari edi. Mohlaroyim Qo‘qonda xon saroyida ekan, davlat ishlaridan ham voqif bo‘lib boradi. Xususan, adabiyot va san‘at ahli bilan yaqinlashishga, davr she‘riyatini yuqori ko‘tarishga astoydil kirishadi. Mohlaroyim va Umarxonning oilasida Muhammad Alixon va Sulton Muhammadxon ismli ikki o‘g‘il tug‘iladi. 1822 yili Umarxon vafotidan keyin 14 yoshli Muhammad Alixon davlatni boshqarishga kirishadi. O‘ttiz yoshida beva qolgan Nodirabegim ham yosh xonning yonida mamlakatni boshqarish ishida faol ishtirok eta boshlaydi.

Nodira davlat va mamlakat ishlarini tadbir va adolat bilan idora qilishda homiylik namunalarini ko‘rsatarkan, bu yillarda mamlakatda birmuncha osoyishtalik saqlandi. Qo‘shni o‘lkalar va ularning hukmdorlari bilan savdo-sotiq va boshqa sohalarda hamkorlik amalga oshirildi. Shoira mamlakatdagi qurilishlar sohasida olib borgan ishlari, madaniyat va adabiyot borasida ko‘rsatgan tashabbuskorliklarini o‘zining devoni debochasida shunday deb ta’kidlaydi: “... Sayyidu sodot, mashoyixu ulamolardin tuhaf va hidiya birla duolar oldim. Masokin va benavolarga xayru ehsonlar birla bahra etkurdim. Karam va ato xonidan fuqaro xalqini mamnun va mustag‘in aylab, marhamat va shafqatlar ko‘rguzdim. Va javorida madrasai fayzosor ulumi diniy talabalarig‘a bino qildim. Jiddu jahd birla sipohiylag‘a anjom, fuqarolarg‘a orom yetkurdim. Mamlakatni obod, mustamandlar ko‘nglini shod qildim. Ulamoii din rivojlarig‘a imdod yetkurdim, to shari sharif rivoj topdi, zuhd ahlig‘a ixlos va aqidatan zohir qildim, to din va millat kamol topdi. Fazlu donish qabilasig‘a shafqat marhamatdin oncha inoyatlar ko‘rguzdimkim e’tibor darajasig‘a taraqqiy qildilar. Mushafi sharif va kutubi diniy va rasoyili yaqiniy ko‘p yozdirdim. Barchasini xolisanillah vaqf qildim”.

Nodira hali Andijondaligidayoq faqat husn-latofati, zeboligi bilangina emas, balki aql-idroki, donoligi, ilm fanga mayli, adabiyotga ishtiyoqi bilan ham ko'zga chalina boshlagan edi. Uning xat-savod chiqarib, eski maktablarda o'qilishi rasm bo'lib qolgan Sa'diy, Hofiz, Navoiy, Jomiy, Fuzuliy, Bedil asarlarini mutolaa qilishi Qo'qonda yana ham kuchaydi. Nodira xon kutubxonasidan istagancha foydalanar va she'r yozishni mashq qilishda avvalo Umarxon (Amiriy) va so'ngra uning saroyidagi shoirlardan maslahat olar, ularning adabiy munozaralaridan manfaatlanar edi. Nihoyat, u shoira sifatida kamolga yetib, hammaga ma'qul va manzur asarlar yaratdiki, haqiqatan ham, uning go'zal va sermazmun so'zlarini o'qiganda, "ahli davron marhabo" demay qo'ymas edi:

Nodira har so'zki, nishon ayladim,

Aydi anga ahli davron marhabo!

Zamondoshlaridan shoir Xotifning guvohlik berishicha, Mohlaroyim "mamlakat nizomi va xalq ehtiyojlarini tadbir va adolat rasmida kamoli aql va farosat bilan shunday olib bordiki, tamomi umaro va fuzalolar davrasida yagonai zamona, "Nodirai davron" bo'lib tanildi va xalqlar taxsiniga sazovor bo'ldi".

Biroq, xonliklar o'rtasida davom etib turgan muttasil kelishmovchiliklar Mohlaroyimning o'z faoliyatini keng ravnaq toptirishiga rahna solar edi. Oqibat shunday bo'ldiki, 1842 yili Buxoro amiri Nasrullo go'yo bu yerda izidan chiqqan shariat qoidalarini nizomga solmoqchi bo'lib, turli vaj-karsonlar bilan Qo'qon ustiga bostirib keladi. Xonlikning hamma e'tiborli kishilarini ta'qib etib, Nodirani ikki og'li – Muhammad Alixon, Sulton Muhammadxon va norasida nabirasi Muhammad Aminxonlar bilan vahshiylarcha qatl ettiradi. Johillik va nodonlik qurboni bo'lgan, o'zbek xalqining aziz shoirasi Nodirabegim yorqin ijodi bilan so'nmas iz qoldirdi.

Nodira o'zbek mumtoz adabiyotining Qo'qon adabiy maktabida kamol topgan va uning taraqqiyotiga cheksiz hissa

qo'shgan ma'rifatparvar qalam sohibasidir. Shoira yashab ijod etgan davrda Qo'qon xonligida o'zbek adabiyoti keng rivoj topib, o'ziga xos adabiy muhit yuzaga keldi. Uning boshida Qo'qon xoni Umarxon (Amiriy) turar edi. Nodira ham o'zbek adabiyotida ustozlik va homiylik darajasiga ko'tarila olgan yirik siymolardan edi.

NODIRABEGIM LIRIKASI

Sharq she'riyatshunosligida, shoirning iste'dodi, kamolat darajasi, mahorat miqyoslariga baho berganda, odatda, uning devon yaratgan, yaratmaganligiga asoslanib ish tutishgan. Chunki shoirlar asarlari miqdori devon tartib etishga yetib ortgan, she'r yozish mahorati, malakasi yetilgan badiiy uslubi sayqal topgan davrdagina devon yaratishga jur'at etganlar. Bunday yetuk shoirlarni "Sohibi devon" iborasi bilan sifatlashgan. Mohlaroyim Nodira-sohibi devon shoira edi.

Nodiraning zullisoniylik fazilati ham uning badiiy mahoratidan dalolat beradi. Ikki til egasi bo'lish til bilishgina emas, balki ikki xalq madaniyatini o'zlashtirishlikni ham anglatadi. O'z tuyg'u-kechinmalari, o'y-fikrlarini ikki tilda badiiy tasvirlash zullisoniylik mahoratini talab etadi. Nodira shunday mahoratli shoira edi va buni shoiraning o'z faxriyasi tasdiqlaydi:

*Bo'lubdir Nodira mumtozi ma'ni,
Kalomi ravshanu ash'ori farrux.*

Chindan ham, Nodira ma'ni mumtozi, so'zi ravshan, she'ri nurafshon so'z san'atkori edi.

Nodira-badiiyat ilmidagi san'atlarni mukammal o'rgangan va she'riyatiga tabiiy tatbiq eta olgan shoira. U badiiy usul imkoniyatlaridan foydalanib aqlni hayratga soluvchi manzaralar ijod qilgan.

Nodira ishq-muhabbat, ilm-ma'rifat, el-yurt, do'stlik, osoyishtalik, obodonlik va maishiy farovonlik haqida asarlar yaratgan edi. Albatta, uning bevosita mamlakat va xalq hayoti bilan aloqador bo'lgan she'r va g'azallari aholining turli qatlam-

lari, jumladan, mehnatkash tabaqalar “marhabo”siga musharraf bo‘lgan; uning “Shoh uldurki, raiyatga tarahhum qilsa” degan so‘zlari, “Shod qilgin bandalarning ko‘nglini ehson etib” degan iboralari xalqqa ma’qul tushgan va Nodiraning shoira sifatidagi muborak ovozi xalq ovozi, xalq istak-orzusi bilan ma’lum darajada hamohang qilgan.

Masalan, u xonni adolatparvarlikka chaqirib, bunday degan edi:

*Bo‘yla kim mumtoz erursen barcha sultonlar aro,
Shod qilg‘il bandalarning ko‘nglini ehson etib...*

*Fuqaro holig‘a boqmasa harshoh, anga
Hashmatu saltanatu raf‘atu shon barcha abas.*

*Shoh uldurki raiyatga tarahhum qilsa,
Yo‘q esa qoidai amnu omon barcha abas...*

Nodira davlat boshlig‘ining shunday bo‘lishini orzu qilardi. U ba’zan adolatsiz shohdan shikoyat qilardiki, shubhasiz, bu shikoyat ma’lum darajada uning o‘z atrofidagi muhitidan shikoyati edi:

*Doda keldim, ey salotin sarvari, dodim eshit,
Sen shohu men benavo, lutf ayla faryodim eshit...*

kabi misralari Nodiraning bevosita shaxsiy arz-dodi, o‘z his-tuyg‘ulari ifodasiday ko‘rinsada, bunda “shohdan lutfu marhamat” tilab, arz qilgan kishining “dod-faryodlari” ham o‘z ifodasini topgan. Chunki shoira, bir tomonda saroy saltanati va hashamatini, ikkinchi tomonda qashshoq va xor-zor, g‘arib va benavo kishilarni ko‘rdi. Mana shu qashshoq va g‘arib kishilarga achindi, ularning farovon va osoyishta yashashini istadi.

Nodira aristokrat tabaqaga mansub bo‘lishiga qaramay, kishilarga shafqatli, xayrihoh va mehribon edi. Binobarin, u kishilarni xo‘rlagan muhitidan, shafqatsiz va bevafo kishilardan, qisman bo‘lsa ham, shikoyat qiladi. Masalan, u odamlarda

“vafo” yo‘qligidan va o‘z tevaragidagi dunyodorlarning makkorligi, aldamchiligidan shikoyat qilib bunday degan edi:

*Olam elida vafo topilmas,
Bu gavhar erur jahonda noyob...*

* * *

*Jahon makkora zoli bevafo dur,
Vafo birla ko‘nglini qilmadi shod...*

“Olam vahmu gumon” (qo‘rquv va shubha) bilan to‘lib-toshganligi shoiraga ma‘lum darajada ayon bo‘ladi:

*Bordir olam binosi vahmu gumon,
Ey ko‘ngil, vahm ila gumondin kech...*

Shoira she‘rlarida Umarxonni madh etadi, uni mubolag‘a bilan maqtab ta‘riflaydi. Unga bo‘lgan muhabbati to‘g‘risida yozgan baytlaridan “Lazzati she‘ri Umar sohibqiron” anqib turajagini aytadi:

*Nodira qilg‘ach muhabbat nash‘asidin guftu-go‘
Lazzati she‘ri Umar sohibqirondan berdi yod...*

Bu bayt, bir tomondan, Nodiraning sevgisini ifodalasa, ikkinchi tomondan, uning she‘riyatda Umarxondan ta‘lim olganini anglatadi. Shunday bo‘lishiga qaramay, Nodiraning she‘riyati mafkuraning ba‘zi tomonlari, e‘tiqodi bilan Umarxonning dunyoqarashi va adabiy-estetik didiga ma‘lum darajada zid keladi. Xo‘sh, shoiraning o‘zi hukmron doiralarga mansub bo‘la turib hayotdan va zamondan nima uchun shikoyat qiladi?

Buning asosiy sababi, bir sharoitda turib, hayot voqeahodisalarini turli xil mushohada qilish, turlicha anglash va ularga turli xil munosabatda bo‘lishdadir, albatta. Umarxonning hukmronligi jabr-zulmga asoslangan edi. U minglab begunoh kishilarni qonga beladi, qurbon qildi. Umarxon o‘z she‘rlarida bularning hammasidan ko‘z yumdi, ular haqida hech narsa demadi.

Nodira esa bunday qilmadi. Chunki u janglarda va boshqa paytlarda qurbon bo‘lgan hamda qilich va xanjarlar zarbidan jarohatlangan son-sanoqsiz kishilarga duch keladi; xon

ov va harbiy safarda yurganda Nodira ko‘pincha xonning farmonlari Qo‘qonda, saroyda va zindonda qanday ijro etilishini ko‘radi, begunoh kishilarni o‘limga sudrovchi jallodlarning vahshiyona harakatlariga shohid bo‘ladi; dunyoga aql-idrok ko‘zi bilan qaragan, har bir hodisa va voqeaning mohiyatini anglashga intilgan Nodira bu dahshatli manzaralardan ta’sirlanmay qolmaydi, indamay o‘tib ketavermaydi. O‘ylaydi, hayron qoladi, o‘ziga-o‘zi savollar beradi, javob axtaradi, qiynaladi va o‘z o‘ylarini she’riy misralar ipiga shodalab:

*Hisob etmoqqa charx anjumlarin bor ehtimol anda,
Mening dog‘i dilimni lek bo‘lmaydi hisob aylab...--*

deb yozadi va “tab’i noshodi” ni bayon etish uchun ba’zan tongdan oqshomgacha g‘am-g‘ussa bilan to‘lib-toshgan g‘azallar yozadi, xonni adolatga, saroy ahlini aql-donish bilan rahmdil bo‘lib ish ko‘rishga chaqiradi.

Nodira, bir tomondan, badavlat hayot kechirayotganligi uchun o‘zini baxtiyor deb biladi va ikkinchi tomondan, qashshoq, yalang‘och va azobu uqubatda parcha nonga zor va xor bo‘lib yashayotgan kishilarni ko‘rib, ularning baxtsizligiga achinadi.

Nodiraning ko‘pchilik g‘azallari muhabbat mavzusida yozilgan bo‘lib, u ijtimoiy-axloqiy fikrlarni, zulm-zo‘rlikdan norozilik tuyg‘ularini mazkur g‘azallarga singdirib yuboradi. Shoira muhabbat haqidagi qarashlarini ifodalaganida o‘z zamona sidagi voqea va hodisalarga, ko‘zga yaqqol chalinib turgan faktlarga ham ishora qilib o‘tadi.

Nodira muhabbatni odam uchun eng aziz va eng muborak, pok va samimiy tuyg‘ular mujassami, oshiqning ma’shuqaga, ma’shuqaning oshiqqa nisbatan iliq sevgisi, ikki dil va ikki tilning xohish va irodada, hurmat va samimiyatda birligi, hamjihatligi deb biladi. Shoira muhabbatsiz kishilarni odam qatoriga ham qo‘shmaydi:

Muhabbatsiz kishi odam emasdur,

Gar odamsan, muhabbat ixtiyor et...

Shoiraning fikricha, “kimda osori muhabbat” bo’lsa, uning mahbubasi, ya’ni uning samimiy sevgisiga loyiq ma’shuqasi ham bo’ladi:

*Har kimda bor esa osori muhabbat,
Aylar anga mahublar izhori muhabbat...*

“Haqiqiy ishq binosi rohat” keltirishi, “soyai devori muhabbat” esa osudalik, oroyish, orom bag‘ishlashi lozim.

*Rohat tilasang ishq binosini panoh et,
Osuda erur soyai muhabbat...*

FORS-TOJIK TILLARDAGI SHE’RLARI

Mohlaroyim-Nodiraning yuqorida qisman tahlil qilingan she’rlari uning o‘zbekcha va tojikcha devonlaridan keltirilgan.

Tojikcha devon muqaddimasida noma’lum kotib-shoiraning Mohlaroyim fazilatlarini va xizmatlarini haqida “Kamol dengizining gavhari, izzu iqbol sadafining durri noyobi, ul xotinlar toji” degan so‘zlari; shuningdek, Nodiraning o‘zbekcha va tojikcha “yoqimli va shirin-shirin she’rlar yozganligi haqida qaydlar muhim ahamiyatga egadir. Chunki shu 4182 sonli “Devon”ida keltirilgan she’rlar muqaddimada qayd etilgan fikrlarni to‘la tasdiqlaydi.

5000 misradan ko‘proq bo‘lgan 333 she’rni o‘z ichiga olmish bu “Devon” dagi g‘azallarning birida Nodira: “Men gavharlikda Jayhun daryoga yetsam ham, bir qatra suvman, qadru martabadan osmonga yetsam ham, bir zarra tuproqman” deb quyidagilarni yozadi:

*Qatrai obam gar az gavhar ba Jayhun merasam,
Zarrai xokam gar az rif’at ba gardun merasam.*

Bu yurak so‘zlari Maknunaning olijanoblik, kamtarlik fazilatlaridan darak beradi.

Katta falsafiy fikrlar bilan to‘la bo‘lgan bu “Devon” dagi she’rlarning birida shoira:

*To buvad poi jahdi Maknuna
Az sari justujo‘ nagardam boz*

(Maknunaning oyoqlari harakatda ekan, izlanishdan qolmaydi),-desa, boshqa bir she’rida;

*Umed hast ki, subhi umedi birasad,
Nihoyati shabi zindoni balo birasad.*

(Umidimiz borki, iqbol quyoshga chiqajak, zindon qorong‘uliklariga ham nihoya yetajak),- deb yaxshi kunlarni orzu qilardi. Shoira falakning mojarolariga, “dardu alamga mubtalo” qiluvchi holatlarga e’tiroz bildirib, inson erkinligi to‘g‘risida o‘ylagan. “Zindon qorong‘uligiga barham beruvchi” “Iqbol quyoshi” porlab chiqishini orzu qilgan.

Mohlaroyimning yaqinda Namanganda topilgan yangi devoni hijriy 1239 (melodiy 1824) yilda tuzilgan bo‘lib, unda shoiraning Nodira, Komila, Maknuna taxalluslari bilan bitilgan o‘zbekcha va tojikcha 120 she’ri keltirilgan.

Devonda Xotir, Hoziq, Gulxaniy, Miskin, Dabir, Mushrif, Fazliy she’rlari bilan birga, hozirgacha adabiyotimizda noma’lum bo‘lgan shoir Nodirning 111 g‘azali ham bor. Muhimi shundaki, bu devonga Navoiyning “Ko‘ngul jon birla bo‘ldi hamrahing, men dard ila turdum”, Mullo Abduqodir Bedilning “Ilohi pora tamkindeh dami vahshi nigohonro” kabi g‘azallariga shoira tomonidan bog‘langan muhammaslar ilova qilingan.

Devondagi 103 banddan iborat muxammaslar, 11 bandlik ikki musaddas, 5 bandlik musamman, 8 bandlik tarkiband va 10 bandlik muashshar shoiraning faqat g‘azal janrida emas, balki boshqa xilma-xil janrlarda ham mahorat bilan qalam tebratganini ochiq ko‘rsatib turadi. Misol uchun shoiraning firoqnoma tarsidagi muashsharidan bir bandini ko‘zdan kechiraylik.

*Ohkim behad menga javru jafu aylar falak,
Furqat ichra qismatim dardu-balo aylar falak.*

*Yerdin ayru manga ko‘p mojaro aylar falak,
G‘am bila guldek yuzimni qahrabo aylar falak.*

*Bevafodir oqibat, kimga vafo aylar falak,
Hasratu dardu alamga muhtalo aylar falak.*

*Yorning albatta yoridan judo aylar falak,
Gul bila bulbulni bebargu navo aylar falak.*

*Hech kim yorab jahonda yoridin ayrilmasun,
Jondin ortiq mehribon dildoridin ayrilmasun.*

Bu misralardan ayonki, she‘riyatning har qanday shaklida ham o‘z fikrlarini ravon ifodalay olgan shoira, boshiga qanchalik kulfatlar tushmasin, umid tonglariga yetmoqchi, qorong‘i zindon oqshomlaridan yorug‘likka chiqmoqchi bo‘lgan. Shoira qandaydir ilm, ma‘rifat va madaniyat rivojiga yo‘l beruvchi sharoitlarga intiladi.

Albatta, Nodira o‘z sinfiy pozitsiyalaridan tamomila voz kechmagan edi. Uning amaliy faoliyati shubhasiz o‘zi mansub bo‘lgan feodal sinfining hokimiyatini mustahkamlashga qaratilgan edi. Lekin u har doim adolat, sulhparvarlik va xalqparvarlik nuqtai nazaridan ish ko‘rar edi. Ammo uning bu jur‘atlari reaksiyon doiralarning g‘azabini qo‘zg‘amay qo‘ymas edi. Ular o‘zlarining eng yaqin tayanchlari bo‘lgan Buxoro amiri Nasrulloxonga takror-takror murojaat etib, Nodirani o‘rtadan olib tashlashni so‘raydilar.

NODIRANING FOJIASI

Tarix kitoblaridan keltirilgan ma‘lumotlardan ma‘lumki, amir Nasrullo, dastlab, Muhammad Aminxonga teskari borgan ukasi Sulton Muhammadga Shahrizabzdan “tak‘yagoh”-joy be-

radi. Soʻngra uni Xoʻjandga hokim qiladi. Nodira anchadan keyin aka-ukani yarashtirib, Toshkent taraflarini Sulton Muhammadga, poytaxt Qoʻqonni, Xoʻjandni, umuman Fargʻona vodiysini Muhammad Alixonga beradi. Bu haqda Muhammad Fozilbek Muhammad Otabek oʻgʻli “Tavorixi mukammali Fargʻona” nomli kitobida quyidagilarni yozadi.

“Amir Nasrullo ketgandan soʻng Muhammad Alixon onasi Xoʻjand kelib, kichik oʻgʻli Sulton Muhammadxonni akasi Muhammad Alixon birla yarashturub, Sulton Muhammadni Toshkentga hokim aylab, oʻzi Xoʻjandga ketadi”.

Bundan gʻazablangan amir Nasrullo 1842 yilda katta qoʻshin tortib, Qoʻqonga bostirib keladi va Muhammad Alini ham, Sulton Muhammadni ham, shoiraning 12 yoshli nabirasi Muhammad Aminni ham soʻydiradi. Nodira begunoh nabirasi-ning jasaki ustida dod faryod koʻtarib, amir Nasrullo laʼnatlar yogʻdiradi. Shundan keyin amir Nasrullo Nodirani ham uning eng yaqin mahramlari (Xushholbibi, Norbibi kabilar) bilan birgalikda oʻldirtiradi.

Nodiraning fojiasi haqidagi maʼlumotlar shoir Mutribning “Shohnomai devona Mutrib” dostonida, Muhammad domlo Atorning “Toʻhfut-ut-tavorix” kitobida, Mirzo Olimning “Ansob-us-salotini va tavorixi xavoqin” kitobida, samarqandlik Mir Abdulhayxojaning bir kitobida ham bayon qilingan.

Nodiraning bu fojiali oʻlimi tarix sahifalarida oʻz aksini topdi. Kelajak avlod ham bu fojia tarixini oʻqiydi, oʻrganadi va oʻz xulosalarini chiqaradi. Bunday umrlar manguликka daxldor-dir.

Umri ana shunday mudhish fojia bilan tugagan Mohlaroyim-Nodiraning sheʼrlari oʻzbek va tojik sheʼriyatining muhim durdonalaridandir.

Binobarin, shoiraning:

Tong emasdur boʻlsa bu muddatda ustodi suxan.

Nodira ashʻoriga tahsin etar Salmon koʻrib-

deb faxrlanishi bejiz emas edi. Chindan ham shoiraning
*Nodirai g'azalsaro nazmini ko'rsa nogahon,
Durru javohirni qilur fikriga bahru kon fido-*
degan so'zlarida zo'r hikmat bor edi. Hqaiqatan ham
Nodira so'z san'atining mohir ustasi sifatida misralarni badiiy-
lashtirishga, ma'no-mazmunning ifodasiga mos usullar qo'llash-
ga, talmeh, tazmin, mukarrar, husni ta'lil va tazod san'atini
to'g'ri ishlata bilishga qodir edi. Chunonchi, uning:

*Furqat ichra tushdi savdoi Zulayxo boshima,
Qiymati Yusuf baho topdi xaridorimg'a ayt...*
misralari talmeh san'ati asosida ishlangan bo'lsa,
*Talxkomoiro ba sog'ar az labu dandoni, o'
Zahr-shahdu, shahd-shiru, shir-shakar meshavad.*

(Yorning labi tekkan qadah baxti qora, taqdiri achchiq
odamlar nazarida zaharni bolga, bolni shakarga aylantiradi,
misralar mukarrar usuli asosida bunyod etilgan. Yoki:

*Husni ishq aylar seni xokistaringni to'tiyo,
Shamdek kuymakni kasb et mazhabi parvona tut-*
misralarda husni ta'lil va xitob usullari qo'llanilgan
bo'lsa,

*Oshiq o'lding ey ko'ngil, emdi rahi mayxona tut.
Mast o'lub soqi ayog'ini o'pub paymona tut-*
Misralarda xitob ham, "tazod san'ati" ham qo'llanilgan.
So'nggi misradagi "soqi ayog'i" iborasi ham qadah (piyola)
ma'nosida, ham soqining ayog'i ma'nosida keltirilgan.

*Xusho oqilki, aylab yaxshilik bunyodini mahkam,
O'tar bu dayri foniydin o'zini neknom aylab...*

NODIRA HAYOTI, IJODIY FAOLIYATINI HAMDA
U HAQIDAGI MANBALARNI BILASIZMI?
Bilimdonlar bellashuvini tashkil qilishga tavsiyalar

Tanlovning maqsadi Nodirabegim ijodi, tarjimai holi, u haqidagi adabiyotlarga kitobxonlarning qiziqishlarini oshirishdan iborat.

Bellashuvni o'tkazishdan oldin faol kitobxonlardan har biri 6-8 kishidan iborat bo'lgan 2 ta bilimdonlar guruhi tuziladi. Ularga asosan maktab, litsey, kollej o'quvchilari, oliy o'quv yurti talabalari guruhi kiritilishi mumkin. Bellashuv tashkilotchilari bilimdonlarga beriladigan savollarni tuzib chiqadilar. So'ngra shu savollardan har ikki guruhga mo'ljallab qo'yiladi. Kutubxonada savollarga doir adabiyotlar tayyor turishi kerak. Bellashuvga tayyorlanish jarayonida qatnashuvchilar o'sha adabiyotlarni puxta o'qib chiqishlari zarur.

Bilimdonlar e'tiborini Nodirabegim hayoti va ijodiy faoliyati berilgan nashrlarga, u haqidagi monografiya va risolalarga, ilmiy maqolalarga, shoira to'g'risida mustaqillik yillarida Prezidentimiz tomonidan chiqarilgan qaror, qonun, Farmonlarga, internet saytlaridagi ma'lumotlarga qaratish lozim. Bellashuv o'tkaziladigan joyda Nodirabegim hayoti va ijodini aks ettiruvchi kitob ko'rgazmasini tashkil etishni tavsiya qilamiz.

Quyida bellashuvga qo'yiladigan savollardan namunalar keltiramiz. Shunga qarab kutubxonachilar bilimdonlar qaysi asarlardan foydalanishlari kerakligini bilib oladilar.

1. Nodirabegim qachon va qayerda tavallud topgan?

(Nodirabegim 1792 yil Andijon hokimi Rahmonqulibiy oilasida dunyoga kelgan).

2. Nodirabegim qanday taxalluslarda ijod qilgan?

(Nodirabegim Maknuna, Mohlaroyim, Komila kabi taxalluslarida ijod qilgan).

3. Nodira o'z ijodida kimni o'z ustoz va maslahatgo'yi deb biladi?

(Nodira o'z ijodida turmush o'rtog'i Qo'qon xoni, shoir Umarxonni o'z ustoz deb bilgan).

4. Nodira qaysi tillarda ijod qilgan?

(Nodira fors-tojik tillarida ijod qilgan, u ikki til ijodkoridir ya'ni Zullisoniydir).

5. Nodira she'riyatida ko'proq nimalarga urg'u berilgan?

(Nodira she'riyatida hijron, ayriliq, adolatsizlik, ilma'rifat, do'stlik haqidagi fikrlarga ko'proq urg'u berilgan).

6. "Nodira-Komila" devonida Komila taxallusi bilan yozgan tojik tilidagi she'rlari nechmi misrani o'z ichiga oladi?

(Devonda tojik tilida Komila taxallusi bilan yozilgan she'rlari 7000 misrani o'z ichiga oladi).

7. Nodiraning fors-tojik tilida yozgan 4182 raqamli "Devon"i necha misradan iborat she'rni o'z ichiga oladi?

(Nodiraning 4182 raqamli "Devon"ida 5000 misra bo'lgan 333 she'rni o'z ichiga oladi).

8. Nodira quyida keltirilgan g'azalida nima demoqchiligini tahlil qiling?

Qatrai obam gar az gavhar ba Jayhun merasam.

Zarrai xonamgar az rif'at ba gardun merasam.

(Nodira: "Men gavharlikda Jayhun daryoga yetsam ham, bir qatra suvman, qadru martabada osmonga yetsam ham, bir zarra tuproqman" deb shu misralarni bitgan).

9. Shoiraning 7766 raqamli "devon"i qaysi yili va kim tomonidan muqovalangan?

(Ushbu "Devon" hijriy 1329 yilida Muhammad sahhof tomonidan muqovalangan).

10. Shoira "Devon"larining asl nusxasi hozirda qayerda saqlanmoqda?

(Shoira "Devon"larining asl nusxasi hozirda O'zbekiston Fanlar akademiyasining qo'l yozmalar fondida saqlanadi).

11. "Mohlaroyim" madrasasi qayerda joylashgan va kimning buyrug'i bilan qurdirilgan?

(“Mohlaroyim” madrasasi Qo‘qonda joylashgan bo‘lib, Nodirabegim buyrug‘i bilan barpo qilingan).

12. Quyida keltirilgan parcha kimga bag'ishlangan va kimning qalamiga mansub asardan olingan?

*Aningdek kelmagay dahr ichra oyim,
Aning ko'ngli saxovat birla doyim.
Surubon keltirib ahli fazoyil
Yig'ildi dargahida har qaboyil,
Barisi she'r ichra erdi mohir,
G'azal demoqqa barcha erdi shoir...*

(Ushbu parcha shoir Mavlono Nodirning "Yetti gulshan" kitobidan olingan bo'lib, Mohlaroyimga ta'rif berilgan).

13. Mohlaroyimning qaysi yilda tuzilgan "Devon"i mustaqillikdan keyingi davrda qayerda topildi?

(Ushbu "Devon" Namanganda topilib, u hijriy 1239 yilda tuzilgan).

14. Quyida keltirilgan parchada shoira nima demoqchiligini ta'riflab bering?

*Ko'zlarim mushtoqdir diydor uchun ruxsora och,
Pardani yuzdin ko'zim qilg'uncha bir nazzora
Pardai nozu hayo xomush la'lingdin ko'tar,
Ikki gul bargini bir-biridin guhar guftora och.*

(Ushbu misralarda shoira paranji chachvonni ham, qizlarning husn-jamoli, latofatini to'suvchi yuz yopinchig'larini yoqtirmasligi, Umarxonning nojo'ya harakatlari, uning xiyonati haqida so'z ketgan).

15. *G'amimni sharhini yuz mingdan birini dedim,
Falak ani ko'tarurda ham ayladi qomat.*

Yuqorida keltirilgan parcha qaysi usuldan foydalanib yozilgan?

(Ushbu parcha shoiraning mubolog'a usulini mahorat bilan qo'llaganini ko'rsatadi).

16. Quyida keltirilgan misraga ta'rif bering?

*Bu ko'zdin Komila, ko'p yosh to'karsen,
Ki, bergay tangri bir yoshingga yuz yosh.*

(Ushbu baytdagi “Komila” va “yosh” soʻzlarida shoira tajni qoʻllay olgan, “Komila” soʻzi birinchi navbatda taxallus maʼnosini, “yosh” esa koʻz yoshini anglatadi. Ikkinchidan, “Komila” aslyatda aynan joriy yozuvda kichik harf bilan ajratib yozilsa, “kom ila”-“umid bilan”, “maqsad bilan” maʼnosini ham ifodalaydi, “yosh” esa umrning yillik bosqichlarini ham bildiradi. Demak bayt “Ey Komila, koʻp koʻzyosh toʻkasan, ilohi niyatingga yetgin, tangri bir tomchi koʻz yoshing evaziga yuz yillik umr qoʻshib bersin” degan mazmunni anglatadi).

17. Nodiraning ushbu baytiga taʼrif bering?

*Ul zulfi tabdor havosida dam-badam,
Mashshota ishtiyoqi bilan shona qilur raqs.*

(Nodira nigohicha, mahoratli mashshota qoʻlidagi taroq raqs tushadi, manzara jonli va hayotiy: mahbubning burama sochlari pardozchining ishtiyoqli harakatlaridan havolanib silkinadi. Silkinishlar surʼatida harakatlanib, taroq ham raqsga tushadi degan mazmunda).

18. Shoira farzandlarining ismlarini aytib oʻting?

(Shoiraning ikki farzandi boʻlib, ular Muhammad Alixon va Sulton Muhammadlardir).

19. Nodirabegim ikki oʻgʻliga qaysi viloyatlarni boshqarishni topshiradi?

(Nodirabegim ikki oʻgʻli hokimiyat uchun urishib qolganda shoira ularni yarashtirish maqsadida katta oʻgʻli Sulton Muhammadni Toshkentga hokim qiladi, kichik oʻgʻli Muhammad Alixonga esa, Poytaxt Qoʻqonni, Xoʻjandni, umuman, Fargʻona vodiysini boshqarishni topshiradi)

20. Shoiraning hayotiga qaysi yil va kim tomonidan rahna solinadi?

(1842 yil Buxoro amiri Nasrullo ikki farzandi va 12 yoshli nabirasi hamda shoira Nodirani qatl ettiradi).

21. Nodiraning fojiali oʻlimi haqida maʼlumotlar qaysi shoirlarning asarlarida bayon etilgan va bularni misol keltiring?

(Nodiraning fojiasi haqidagi ma'lumotlar shoir Mutribning "Shohnomai devon Mutrib" dostonida, Muhammad domlo Attorning "Tuhfat-ut-tavorix" kitobida, Mirzo Olimning "Ansob-us-salotini va tavorixi havoqin" kitobida, samarqandlik Mir Abdulhayxojaning bir kitobida ham bayon qilingan).

OG'ZAKI JURNAL

Kutubxonalarda o'tkaziladigan kechalarning yana bir turi og'zaki jurnaldir. Targ'ibotning bu shakli oddiy jurnalga bir oz o'xshab ketadi. Og'zaki jurnal ham matbuot jurnali kabi bitta mavzuga yoki turli mavzuga bag'ishlangan bo'lishi mumkin. Og'zaki jurnal ham shoirning she'rini, maqolasini, maktabmaorif, tarbiyachi, pedagog faoliyati, olim va davlat arboblari doir sharhlovchining chiqishlarini o'z ichiga olishi mumkin. Jurnal sahifalari bosmaxonada bosilmaydi, ammo muallif so'zlari bilan og'zaki to'ldiriladi. Bunday mualliflar kutubxonachilar, adabiyot o'qituvchilari, faol kitobxonlar va boshqalar bo'lishi mumkin.

Og'zaki jurnalning har sahifasi biror bir masalaga bag'ishlanadi. Sahifalarning umumiy soni esa odatdagi jurnaldan bir muncha kam bo'lib, olti betdan oshmaydi.

Kutubxonalarda o'tkaziladigan kechalar kabi og'zaki jurnalni ham boshqaruvchi, bu yerda muharrir deb ataluvchi kishi ochadi. Odatda u har bir sahifani ochishdan ilgari qisqacha kirish so'zi so'zlaydi, so'ng so'zni chiquvchiga beradi.

Quyida Nodirabegim tavalludining 215 yilligi munosabati bilan o'tkaziladigan og'zaki jurnalning taxminiy rejasini tavsiya etamiz. Undan ma'rifatparvar shoir Nodirabegim tavalludiga bag'ishlangan kecha o'tkazishda foydalanish mumkin.

“MA'RIFATPARVAR SIYMO” NOMLI OG'ZAKI JURNALNING NAMUNAVIY REJASI

Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон
Миллий кутубхонаси нашриёти – 2006
www.natlib.uz, e-mail: navoi@tshtt.uz

Nodirabegim hayoti va ijodini, davlatni idora qilishdagi ishlari, na'munali ona, umri fojia bilan yakun topgan shoiraligini keng kitobxonlar o'rtasida targ'ib etishda "og'zaki jurnal"lar alohida o'rin tutadi.

Og'zaki jurnalni o'tkazish to'g'risidagi e'lonlar osib qo'yiladi va mahalliy matbuot orqali xabar berilishi kerak, og'zaki jurnal o'tkazish uchun zalni jihozlash, kerakli mutaxassislarni taklif etish, jurnal sahifalari uchun kitobxonlardan yoki mutaxassislardan tanlab olish, tartibini rejalashtirish, jurnal muharririni tayinlash, musiqali yozuvlarni to'plash, taklif-noma buyurtirish va shu kabi tashkiliy ishlarni amalga oshirish lozim.

Og'zaki jurnalni muharrir kirish so'zi bilan ochadi.

1-sahifa: "Nodirabegimning yoshlik yillari"

2-sahifa: "Uning ijodiy faoliyati"

3-sahifa: "Ilk ijodi va devonlari"

4-sahifa: "Nodirabegim hayotining so'nggi yillari"

Ushbu sahifalar bo'yicha mutaxassislar tanlanib, chiqishlar qilinadi.

Har sahifadan so'g she'riy tanaffus bo'adi.

1-sahifa

"Nodirabegimning yoshlik yillari"

Ushbu sahifada Nodirabegimning tug'ilgan yili, bolaligining kechishi, dastlabki maktab davri, o'quvchilik davrining kechishi va yakunlanishi haqidagi ma'lumotlar beriladi.

2-sahifa

"Nodirabegimning ijodiy faoliyati"

Bu sahifada esa ijodiy faoliyatining boshlanishi, dastlabki ishlari va mehnatining taqdirlanishi kabi ma'lumotlar beriladi.

3-sahifa

"Ilk ijodi va devonlari"

Bu sahifada Nodirabegimning ilk she'ri, shoira sifatida shakllanish davri, davlat boshqaruvi bo'yicha olib borgan ishlari haqida gapiriladi.

4-sahifa

“Nodirabegim hayotining so‘nggi yillari”

Bu sahifada uning so‘nggi yillardagi ijodi haqida gapiriladi. Shoiraning hayoti fojia bilan yakun topgani haqida so‘z boradi.

“Ma’rifatparvar siymo” nomli og‘zaki jurnal muharriri har bir sahifa boshlanishi va so‘ngida sahifalarni to‘ldirib borishi zarur. Og‘zaki jurnal so‘ngida muharrir xulosaviy, yakuniy so‘zni so‘zlab jurnalni yopadi.

“NODIRABEGIM VA UVAYSIY”

Munozara uchun savollar

1. Nodirabegim Uvaysiyi kashf qilgan shoira va nodir siymolardan deyilgan? Bu to‘g‘risida sizning fikringiz?
2. Nodirabegim va Uvaysiy o‘rtasidagi munosabatlar to‘g‘risida sizning fikringiz?
3. Uvaysiyning kamolotga yerishuvida Nodirabegimning roli qanday?
4. Uvaysiyning “Voqeati Muhammad Alixon” dostonida Nodirabegim va Uvaysiy o‘rtasidagi munosabatlarning berilishi to‘g‘risida sizning fikringiz.
5. Nodirabegim Uvaysiyning saroy shoirasi bo‘lishiga homiylik qilishiga nima sabab? Bu to‘g‘risida sizning fikringiz.

“O‘ZBEK XALQINING BUYUK SHOIRASI”

Davra suhbatini uchun savollar

1. Nodirabegim she’riyatining sevib o‘qilishiga nima sabab?

2. O‘zbek shoirasi Nodirabegim maktabining hozirgi zamon davomchilari deb kimlarni aytish mumkin?
3. Shoiraning tavalludini nishonlashga sabab nima deb o‘ylaysiz?
4. Nodira ijodi mahsuli bo‘lgan asarlarning O‘zbekiston kutubxona va muzeylarida saqlanishiga sabab nima?
5. Nodira mubolag‘a san’atining mahoratli ustasi edi. Bu to‘g‘risida sizning fikringiz.

**“NODIRAI DAVRON” NOMLI KITOB
KO‘RGAZMASINI TAYYORLASHNING TAXMINIY
REJASI**

Taklif etilayotgan kitob ko‘rgazmasining maqsadi kutubxonada o‘tkaziladigan tadbirlarni to‘ldiradi. Ko‘rgazma 3 yoki 4 bo‘limdan iborat bo‘lishi mumkin.

Ko‘rgazma quyidagi bo‘limlarni o‘z ichiga oladi:

1. “Nodira hayoti va faoliyati sahifalari”

*Aningdek kelmagay dahr ichra oyim,
Aning ko‘ngli saxovat birla doyim.
Surubon keltirib ahli fazoyil
Yig‘ildi dargahida har qaboyil,*

Mavlono Nodir

Bu bo‘limga Nodirabegim hayoti va ijodiy faoliyati haqidagi nashrlar qo‘yiladi.

2. “Nodirabegim tengsiz mahorat sohibasi”

*“Nodira ilm-adab va nazm osmonining
yulduzi, ushshoqlari g‘azalxoni, shakar
sotuvchi bulbuldir”*

Dilshod

Bu bo‘limga shoiraning asarlari, devonlari nashrlari qo‘yiladi.

3. “Nazmi jahon shoira”

Xating ishtiyoqin savod ayladim.

*Ko‘zumning qarosin midod yladim.
Meni baski devona qildi g‘aming,
Junun ahlig‘a ittihad ayladim.*

Nodirabegim

Bu bo‘limga mustaqillik yillarida Nodirabegim to‘g‘risida chiqqan farmonlar, qarorlar, u haqida yaratilgan monografiya va risolalar, o‘tkazilgan anjumanlar materiallari, to‘plangan manbalar, ilmiy maqolalar, ilmiy ommabop, publitsistik nashrlarni namoyish etish mumkin.

4. “She’riyat va muhabbat malikasi”

*Koshki uyquda bir ko‘rsam edi yorimni,
Yig‘lasam bilgay edi holi dili zorimni,
Dard ahli o‘qusun Komila guftorimni,
Yozibon ko‘kda quyosh lavhin
ash‘orimni*

Nodirabegim

Bu bo‘limga shoiraning muhabbat to‘g‘risidagi she’rlari va she’riy to‘plamlari namoyish etiladi.

5. “Nodirabegim devonlari”

*Ul kecha uyida bo‘ldi bedor,
Hazrat Oyim ki sarvraftor.
Xurshid kabi yuzin o‘shal kun,
Qo‘ydi, misoli bo‘ldi majnun.*

Uvaysiy

Bu bo‘limda shoiraning devonlari va to‘plamlari nashrlari namoyish etiladi.

KUTUBXONALARDA O‘TKAZISH MUMKIN BO‘LGAN TADBIRLAR TURKUMI

Ilmiy-amaliy konferensiya

1. “Nodirabegim va o‘zbek she‘riyati san‘ati”.
2. “O‘zbekimning shoirasi”.
3. “Nodirabegim ishq va hijron kuychisi”.
4. “Nodirabegim ijodi” kabi mavzularda;
“O‘zbekim quyoshi”, “She‘riyat sohibasi”, “Ma‘rifat-parvar shoir” kabi mavzularda kitob ko‘rgazmasi va ko‘rgazmadagi adabiyotlar obzori.

Kitobxonlar konferensiyasi

1. “Mubolag‘a san‘atining ustasi”.
2. “Shoiralar ustoz va davlat arbobi”.
3. “Adabiyot va xalq homiysi”.
4. “Oyim qishloqning Mohlaroyimi” kabi mavzularda;
“Buyuk va suyuk shoir”, “Ustoz shoir”, “Davr Nodirasi” kabi mavzularda kitob ko‘rgazmasi va ko‘rgazmadagi adabiyotlar obzori.

Bilimdonlar bellashuvi

1. “Nodirabegim yashagan davr haqida”.
2. “Nodirabegim asarlarida ma‘rifatning kuylanishi”.
3. “Nodirabegim devonlarini bilasizmi?”.
4. “Nodirabegim merosini bilasizmi?” kabi mavzularda;
“Millat va din yulduzi”, “Mehri daryo shoir” kabi mavzularda kitob ko‘rgazmasi va ko‘rgazmadagi adabiyotlar obzori.

Davra suhbat

1. “Nodirabegim asarlarida ma‘rifatning kuylanishi”.
2. “Nodirabegim devonlarida tarbiya, ahloq, aql, ilm, vijdon, vatan, ishq-muhabbat tuyg‘ularining ulug‘lanishi”.
3. “Vatanini ulug‘lagan shoir” kabi mavzularda

“Sharafli hayot”, “Zullisoniylikni ulug‘lagan shoira” kabi mavzularda kitob ko‘rgazmasi va ko‘rgazmadagi adabiyotlar obzori.

Savol-javob kechasi

1. “Nodirabegim g‘azallarini bilasizmi?”.
2. “Nodirabegim jamoat arbobi”.
3. “Nodirabegim va o‘zbek she‘riyati” kabi mavzularda; “Oq tonglarni orzulagan shoira”, “Andijonning ulug‘ farzandi” kabi mavzularda kitob ko‘rgazmasi va ko‘rgazmadagi adabiyotlar obzori.

Munozora kechasi

1. “Umarxonning Nodirabegim ijodiga ta‘siri”
2. “Shoiraning go‘zal insoniy fazilatlar to‘g‘risidagi fikrlari”.
3. “Otashnafas shoira” kabi mavzularda; “Vatanini himoya qilgan shoira”, “Nodirabegim badiiy adabiyotda” kabi mavzularda kitob ko‘rgazmasi va ko‘rgazmadagi adabiyotlar obzori.

Uchrashuv kechasi

Adabiyotshunos, faylasuf olimlar bilan.

1. Aziz Qayumov.
 2. Mahbuba Qodirova.
 3. Sobir Mirvaliyev.
 4. Mahmud Sattor.
- “Mangu baxtli siymo”, “Umri boqiy shoira” kabi mavzularda kitob ko‘rgazmasi va ko‘rgazmadagi adabiyotlar obzori.

Xotira va qadrlash soati

1. “Shoira devonlari”
2. “Buyuk inson edi”
3. “Uning chirog‘i yoniq”
4. “Umri boqiy inson”

“O‘chmas noming jahonda”, “Shoira ruhlari shod bo‘lsin”, “Avlodlari unitmaydi” kabi mavzularda kitob ko‘rgazmasi va ko‘rgazmadagi adabiyotlar obzori.

Adabiyotlar

Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz.- T.7.-T.:O‘zbekiston,1999.-413 b.

Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон
Миллий кутубхонаси нашриёти – 2006
www.natlib.uz, e-mail: navoi@tshtt.uz

Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat etishga xizmat etsin.-T.: O‘zbekiston, 1998.-30 b.

Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q.-T.:Sharq, 1998.-31 b.

Barkamol avlod orzusi /Tuzuvchilar: Sh. Qurbonov, X. Saidov, R. Ahliddinov.-To‘ld. 2-nashri.-T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashr., 2000.-248 b.

* * *

Nodira. Asarlar 2 tomlik./ (Muharrir M. Munzoda, tarjimonlar: M.Qodirova va A. Azizov.-T.: Adabiyot va san‘at nashr., 1998.-450 b.

Nodira. Devon /Mas‘ul muharrir A. Qayumov.-T.:Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr., 2001.-350 b.

Nodira. Devon. O‘zbek va fors-tojik tillardagi she‘rlar.-T.: O‘zbekiston, 1993.-620 b.

Nodira she‘riyatidan.-T.: O‘zbekiston, 1999.-109 b.

Nodira. Ey sarvi ravon: G‘azllar /Mas‘ul muharrir A. Qayumov.-T.: Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1992.-144 b.

Nodira-Komila /Muharrir V. Rahmonov; So‘z boshi muallifi M. Qodirova.-T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy k-nasi. nashr., 2004.-208 b.

Nodira-Komila /Muharrir A. Qayumov; So‘z boshi muallifi M. Qodirova.-T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr., 2001.-346 b.

Nodira. Uvaysiy, Mahzuna va Nodira she‘rlar.-T.: Adabiyot va san‘at nashriyoti, 2000.-300 b.

* * *

Abdullayev A. O‘zbek adabiyoti tarixi. 2-kitob-T.: O‘qituvchi, 1964.-376 b.

Abdurahmonova M. Zako va vafu sohibasi // Qishloq haqiqati.-1994.-28 noyab.

Abdushukurova S. Shoiraning taqdiri (Nodira) // O‘zbekiston-Contact.-1999.-№ 9-12.-B. 26.

Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон
Миллий кутубхонаси нашриёти – 2006
www.natlib.uz, e-mail: navoi@tshtt.uz

Abdugʻafurov A. “Koshki uyquda bir koʻrsam edi yorimni...”: Nodira va Amiriy haqida // Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati.-1994.-6 may.

Abdugʻafurov A. Olam eliga muhabbat sarchashmalari //Vatan.-1994.-1-8 iyun.

Aliyeva G. Xotin-qizlar huquqini himoya qilgan oʻzbek shoiralari: (Nodira va Uvaysiylarning ijodiy faoliyatidan...): Adib va huquq // Hayot va qonun.-1999.-№7.-B. 91-93.

Baybekova T. Mutafakkir ayollar va tarbiya: (Maʼrifatparvar shoira Nodira haqida) // Guliston.-2000.-№2. B. 43.

Boborahimova M. Mohlaroyim haqida dardli qoʻshiq //Xalq soʻzi.-1998.-3 noyab.

Valiyev B. Nazmi jahon shoira: A Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyidagi mumtoz shoirimiz Mohlaroyim Nodiraning hayoti va ijodiga bagʻishlangan koʻrgazma haqida //Oʻzbekiston ovozi.-1999.-6 yanv.

Dadajonova I. Soʻzga nagʻmai soz ulandi (Nodirabegim tavalludining 200 yilligiga bagʻishlangan kecha) // Xalq soʻzi.-1992.-7 noyab.

Karim Mirza. Mohlaroyim: (“Mohlaroyim” romanidan parcha) //Saodat.-1999.-№ 3-4.-B.8-9.

Koʻnchi Sharofiddin. Nodirabegim (Shoira ijodi haqida) // Milliy tiklanish.-2004.-16 iyul.

Madaminov A. Maʼrifatparvar siymo: Nodirabegim ijodi haqida // Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati.-1999.-6 may.

Matqurbonova O. Aylanur: Nodirabegimga sheʼr // Maʼrifat.-2002.-3 may.

Mahmud Zoirxon. Jon fido: Nodira gʻazaliga muhammas //Maʼrifat.-1998.-6 mart.

Muzaffar Ahmad. Dahr imtihonlari: Nodira va turkman shoiri Qurbondurdi Zaliliy haqida esse// Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati.-1999.-29 yanv.

Murodova M. Oydin ma'yuslik: Mirza Karimning "Mohlaroyim" romaniga so'nggi so'z. Mohlaroyimga Mukarrama Murod qizidan dilnoma// O'zbekiston ovozi.-1993.-17dek.

Nodira ahvolidan ogoh bo'ling: Nodirabegim tavalludining 200 yilligi oldidan// Ishonch.-1992.-19 okt.

Nusratullayev J. Mohlaroyim mahorati: Nodira tavalludining 200 yilligi // Ma'rifat.-1993.-24 apr.

Rasulova G. Nodira-muhabbat va ozodlik kuychisi// Xalq va demokratiya.-2000.-№ 9-10.-B.50-52.

Ro'ziyeva Z. Nodira g'azaliga muhammas: O'zbek mumtoz shoirasining "Ilg'ayurman ranjim ichra borsiz..." g'azaliga: Nazm //Guliston.- 2000.-№1.-B. 18.

Ro'zimatov S. Mohlaroyim ruhi shod bo'lgay: Nodirabegim ijodi haqida// Qishloq haqiqati.-1999.-24 okt.

Ro'zimatov S. Oyim qishloqda Nodirabegim to'yi // Qishloq haqiqati.-1999.-17 dek.

Salomatov V. Balandlik: Nodirabegim hayoti va faoliyati xususida // O'zbekiston adabiyoti va san'ati.-2000.-6 may.

Xorazmdagi Nodirabegim vasfi: Nodirabegimning she'riyatdagi o'rni xususida // O'zbekiston ovozi.-2003.-8 yanv.

Ergashev Q. Anda bir oqil ko'kaldosh: Nodira devonidagi ikki g'azal haqida// O'zbekiston adabiyoti va san'ati.-2000.-15 yanv.

Qobilova Z. Tushimda ko'rsam edi...:Yohud Mohlaroyimning Amiriyga bo'lgan sadoqati haqida// Mahalla.-2001.-5 dek.

Qodirova M. She'riyat va muhabbat malikasi: Mohlaroyim g'azallari haqida// Xalq so'zi.-2000.-12 dek.

Qodirova M. ...Qadam qo'ygil ko'zim gulzoriga: Nodira ijodi haqida // Xalq so'zi.-2002.-11 avg.

Mundarija

Muqaddima	3
Nodirabegimning tarjimai holi.....	5
Nodirabegim lirikasi.....	9
Fors-tojik tillardagi she'rlari.....	13
Nodiraning fojiasi.....	15
Bilimdonlar bellashuvini tashkil qilishga tavsiyalar.....	17
Og'zaki jurnal.....	21
Og'zaki jurnalning namunaviy rejasi.....	22
Munozara uchun savollar.....	23
Davra suhbatini uchun savollar.....	24
Kitob ko'rgazmasini tayyorlashning taxminiy rejasi.....	24
Kutubxonalarda o'tkazish mumkin	
bo'lgan tadbirlar turkumi.....	26
Adabiyotlar.....	29

Bosishga ruxsat etildi 2006 yil
Bichimi 60x84 ¹/₁₆ nashr. t. Adadi 300 nusxa. Buyurtma №

Toshkent sh., X.Sulaymonova ko'chasi, 33-uy
Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi
bosmasida chop etildi